

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

"TASDIQLAYMAN"
Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktori



Sh. Rabiev

2022-yil 2-avgust

"Mediatorlarni tayyorlash"
o'quv kursi bo'yicha

O'QUV DASTURI

Toshkent - 2022

“Mediatorlarni tayyorlash” o‘quv kursining MAZMUNI

I. Kirish

O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 iyulda “Mediasiya to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Xususan, unda mediatsiyaning asosiy tushunchalari va prinsiplari, mediasiyadagi taraflarning huquq va majburiyatları, mediatorga qo‘yiladigan talablar, uning huquq va majburiyatları, mediatsiyadan foydalanish va o‘tkazish shartlari ko‘rsatilgan.

Ushbu Qonunning amal qilishi fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tatbiq etiladi.

Ta’kidlash joizki, ushbu qonunga binoan mediasiya xizmatlari professional va professional bo‘luman holda ko‘rsatilishi mumkin. Professional mediatorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar professional mediatorlar reestriga kiritiladi. Mediasiya suddan tashqari tartibda ham, sudda ham amalga oshirilishi mumkin.

Shu boisdan, nizolashuvchi tomonlar bilan malakali ishlashga qodir bo‘lgan professional mediatorlarni tayyorlash sifati alohida dolzARB ahamiyat kasb etadi.

II. Kursning maqsadi

Mediatorlikka nomzodlarga O‘zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining huquqiy asoslari, uning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmun va mohiyati; mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, etikasi va javobgarligi; mediatsiya bosqichlari va ularda mediatorning vazifa hamda funksiyalari; oilaviy-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy va mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo‘llash; mediatsiyani olib borish texnologiyasi va usullari; mediatsiya jarayonida muzokaralar, stress va nizoli vaziyatlarni boshqarish; mediatsiya jarayoni va u bilan bilan bog‘liq hujjatlar; tijorat mediatsiyasi haqida tayanch bilimlar berish va bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

III. Kursning vazifalari.

Mediatorlikka nomzodlarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish:

fuqarolik huquqiy munosabatlari,

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabatlari,

yakka mehnat nizolari va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo‘llash,

muzokaralar olib borish texnologiyasi, stress holati va kelishmovchiliklarni boshqarish,

mediatsiya tartib-taomili,

nizolarni hal qilish.

IV. Mediatorlarning bilim, ko‘nikmalariga (kompetentlik) qo‘yiladigan kasbiy malaka talabları

Mediatorlar o‘z kasbiy faoliyatini tashkil etish uchun quyidagi bilim, ko‘nikmalarga (kompetentlik) ega bo‘lishi kerak:

O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining huquqiy asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari, mazmun va mohiyati haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish;

mediatorning kasbiy ko'nikmalari, etikasi va javobgarligi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish; mediatsiya bosqichlari va ularda mediatorning vazifa hamda funksiyalari haqida bilish; oilaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo'llay olish; fuqaroviylar-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo'llay olish; mehnatga oid munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo'llay olish; mediatsiyani olib borish texnologiyasi va usullarini bilish; mediatsiya jarayonida muzokaralar, stress va nizoli vaziyatlarni boshqara olish; mediatsiya jarayoni va u bilan bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtira olish; tijorat mediatsiyasi bo'yicha bilimga ega bo'lish.

V. Kutilayotgan natijalar

Kurs yakunida tinglovchilar mediatsyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari, mediatorning kasbiy ko'nikmalari, etikasi va javobgarligi, muzokaralar, mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari, mediatsiyada taraflar vakillarining ishtiroti va ularning maqomi, mediatsiya jarayoni va natijasi hamda u bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish, Iqtisodiy, oilaviy va mehnat munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlariga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.

"Mediatorlarni tayyorlash" kursining MAVZULAR REJASI

№	Mavzular nomi	Mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar				
		Ma'ruba	Seminar-trening	Amaliy mashg'ulot	Yakuniy imtihon	Jami
1	Mediatsyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari	2	2	-	-	4
2	Mediatorning kasbiy ko'nikmalari, etikasi va javobgarligi	2	-	-	-	2
3	Muzokaralar mediatsyaning asosi sifatida	2	2	-	-	4
4	Mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari	2	2	2	-	6
5	Mediatsiyada taraflar vakillarining ishtiroti va ularning maqomi	2	2	-	-	4
6	Mediatsiya jarayoni	-	2	2		4
7	Mediatsiya jarayonining natijasi va u bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish	-	2	2	-	4
8	Iqtisodiy, oilaviy va mehnat munosabatlardan kelib chiqadigan	2	2	4	-	8

	nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlari					
Yakuniy	Nazariy bilimlarni baholash	-	-	-	2	2
imtihon	Amaliy ko'nikmalarni baholash	-	-	-	2	2
	J A M I:	12	14	10	4	40

O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

1-Mavzu: Mediatsyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari

"Mediatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining mazmuni va mohiyati. Mediatsiyani qo'llashning huquqiy oqibatlari va fuqarolik, iqtisodiy-protsessual va hakamlik qonunchiligidagi yarashtiruv jarayonlarini takomillashtirish. Davlat bojlarini undirishda yarashtiruv va mediatorlik kelishuvlarining xususiyatlari. Ijro faoliyatida mediatsiya. Mediatsyaning nizolarni hal qilish usuli sifatidagi xususiyatlari. Nizo: tushunchasi, tuzilishi va dinamikasi.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Mediatsiya to'g'risidagi" Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash to'g'risidagi bo'yrug'i.

Internet resurslari:

- 1.<https://lex.uz/docs/3805227>.
2. <https://lex.uz/uz/docs/4185961>.

2-Mavzu: Mediatorning kasbiy ko'nikmalari, etikasi va javobgarligi

Mediator kasbiy etikasining tushunish. Yevropada mediatorning etika kodeksi. MDH davlatlarida mediatorning milliy etika kodeksi. Mediatorlik faoliyatida kasbiy etikaning roli. Mediatorlik ksbiy etikasi qoidalarini buzishning oqibatlari. Kommunikatsiya: tushunchasi va shakllari. Mediatsiyada kommunikatsyaning xususiyatlari. Samarali kommunikatsiya texnikasi. "Kommunikatsiyada blokirovkalar". Savollar mediatorning kommunikativ texnik vositasi sifatida. Savollarning turlari. Tomonlarning qiziqish va manfaatlarini aniqlash uchun "savollar voronkasi". Mediatsiya jarayonida noverbal kommunikatsiya.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sndlari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz /docs/3805227>.
2. <https://lex.uz /docs/1072079>.
3. <https://lex.uz/docs/-52268>.

3-Mavzu: Muzokaralar mediatsyaning asosi sifatida

Diskussiya bosqichning maqsadlari. Tijorat/oila mediatsiyasi jarayonini imitatsiyasi va tomonlarning aniq manfaatlarini aniqlash jarayonida qo'llaniladigan texnikalarning namoyishi, hissiyotlar bilan ishlash – muzokaralar kun tartibini shakllantirish, tomonlar bilan individual suhbat

(kokus), ochiqcha savollar. Tomonlar manffatlari bo'yicha muzokaralar medaitsiyada muzokaralar bosqichning asosi sifatida. Distributiv savdolashish. Muzokaralarda mavhumlik ("tupik") tushunchasi. Mediatsiya jarayonlarining imitatsiyasi va nizoni hal etish variantlarini qidirish va kelishishga imkon yaratuvchi texnikalarni namoyish qilish: ob'ektiv mezonlar bilan ishlash, nizoni hal qilish bo'yicha takliflarning ko'p variantliligi, muqobil variantlar bilan ishlash, aqliy hujum, "iblis advokati". Mediatsiyada murakkab mijozlar bilan ishlash. Mediatsiyada tomonlar disbalansi bilan ishlash. Mediatsiya jarayonida manipulyatsiyalar.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risidagi" Qonuni.
2. Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash to'g'risidagi bo'yrug'i.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz/docs/3805227>.
2. <https://lex.uz/uz/docs/4185961>.
3. <https://lex.uz/docs/4859436>.

4-Mavzu: Mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari

Mediatsiya bosqichlari (mediatorning kirish so'zi, tomonlarning taqdimotlari, diskussiya – savdolashish, integrativ va distributiv muzokaralar, mediativ kelishuv tayyorlash hamda mediatsiyadan chiqish) va unda mediatorning roli va funksiyalari. Mediatsiyaga tayyorgarlik. Mediatorning mediatsiya ishtirokchilari bilan axborotli uchrashuvi (premediatsiya). Taqdimotlar bosqichida mediatorning kommunikativ texnikalari. Advokat – mediator sifatida. Notarius-mediatorning protsessual vazifalari. Mediatorning huquq va majburiyatları. Taraflarning huquq va majburiyatları.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sndlari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz /docs/3805227>.
2. <https://lex.uz /docs/1072079>.

5-Mavzu: Mediatsiyada taraflar vakillarining ishtiroki va ularning maqomi

Tomonlar vakillarining mediatsiyada ishtiroki va ularning huquqiy maqomi. Mediatsiya jarayonida mutaxassislar, ekspertlar, tarjimon va boshqa shaxslar ishtiroki zarurligini aniqlash hamda ularning maqomi. Oilaviy nizolar mediatsiyasida taraflar yoki ularning vakillari ishtirokining xususiyatlari. Mehnat nizolari mediatsiyasida taraflar yoki ularning vakillari ishtirokining xususiyatlari. Iqtisodiy nizolar mediatsiyasida taraflar yoki ularning vakillari ishtirokining xususiyatlari. Tijorat mediatsiyasida taraflar yoki ularning vakillari ishtirokining xususiyatlari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudsari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

Internet resurslari:

1. [https://lex.uz /docs/3805227](https://lex.uz/docs/3805227).
2. [https://lex.uz /docs/1072079](https://lex.uz/docs/1072079).
3. <https://lex.uz/docs/-52268>.

6-Mavzu: Mediatsiya jarayoni

Nizo tushunchasi. Nizolarning sabablari. Nizoning tuzilishi. Nizo eskolatsiyaning bosqichlari. Nizolarda odamlarning o'zini tutish usullari. Mediabelligini aniqlash uchun nizoning diagnostika qilish. Nizolarda manfaat va pozitsiyalar. Kun tartibini shakllantirish. Mediatsiyadan chiqish (taraflarning manfaatlari bilan ishlash, yechim ishlab chiqish, yechimlarni baholash va tanlash). Mediatsiyada kelishish va erishilgan kelishuvlarning realligini tekshirish jarayonlari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudsari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

Internet resurslari:

1. [https://lex.uz /docs/3805227](https://lex.uz/docs/3805227).
2. [https://lex.uz /docs/1072079](https://lex.uz/docs/1072079).
3. <https://lex.uz/docs/-52268>.

7-Mavzu: Mediatsiya jarayonining natijasi va u bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish

Mediatsiya jarayonida tuziladigan kelishuvlar va ularning turlari. Mediativ kelishuvning kelishuv bitimidan farqi. Mediativ kelishuvga qo'yiladigan huquqiy talablar. Mediativ kelishuvning tuzilishi. Sudda ko'rيلayotgan nizolar bo'yicha mediativ kelishuv tuzish va uning huquqiy oqibatlari. Oilaviy, mehnat, iqtisodiy va boshqa munosabatlardan kelib chiqadigan nizolari bo'yicha mediativ kelishuv va kelishuvlarni ijrosini ta'minlash. Tijorat mediatsiyasi natijalarining rasmiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudsari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

Internet resurslari:

1. [https://lex.uz /docs/3805227](https://lex.uz/docs/3805227).
2. [https://lex.uz /docs/1072079](https://lex.uz/docs/1072079).
3. <https://lex.uz/docs/-52268>.

8-Mavzu: Iqtisodiy, oilaviy va mehnat munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlari

Mediatorning "chek-listi". Iqtisodiy nizolarini hal qilishda mediatsiyani qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy nizolar mediatsiyasining bosqichlari va mediatorning asosiy texnikalari, mediativ kelishuv va kelishuvlarni ijrosini ta'minlash. Mediatsiyada e'tirozlar bilan ishlash. Ko'p tomonlama nizolarda mediatsiya. Merosga oid nizolarda mediatsiya. Tijorat mediatsiyasi. Mediatorning "chek-listi". Oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiyani qo'llashning xususiyatlari. Mol-

mulkni bo'lish va merosga kirishishda oila mediatsiyasi. Bolalarni tarbiyalash va vasiylikka olish huquqni ajratishda oila mediatsiyasi. Qarindoshlar o'rtasidagi nizolarda oila mediatsiyasi. Oila mediatorining chuqurlashgan strategiyasi va texnikasi. Mehnat nizolarini hal qilishda mediatsiyani qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Mehnat nizolari mediatsiyasining bosqichlari va mediatorning asosiy texnikalari. Mehnat nizolari bo'yicha mediativ kelishuv va kelishuvlarni ijrosini ta'minlash.

Manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

Internet resurslari:

1. [https://lex.uz /docs/3805227](https://lex.uz/docs/3805227).
2. [https://lex.uz /docs/1072079](https://lex.uz/docs/1072079).
3. <https://lex.uz/docs/-52268>.